

XORIY MAMLAKATLARI VA YURTIMIZDA KITOBXONLIK AHAMIYATI

Farg'ona davlat universiteti
Qodirova Odinaxon Xayitboy qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kitobxonlikning bugungi kundagi o'rnini, uning jahon hamda yurtimizdagi ahamiyati, xorij mamlakatlari va jamiyatimizda unga qaratilayotgan e'tibor haqida bayon etilgan. Shuningdek, ushbu maqolada Jahon hamjamiyati va xalqaro tashkilotlar tomonidan kitobga bo'lgan munosabat hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kutubxonalar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kitob, kitobxonlik, ma'naviyat, xorij, kutubxona, axborot, elektron kitob.

Абстрактный. В данной статье описывается роль чтения сегодня, его значение в мире и в нашей стране, внимание, уделяемое ему в зарубежных странах и в нашем обществе. Также в данной статье даны сведения о работе библиотек в формировании культуры чтения и отношения к книгам со стороны мирового сообщества и международных организаций.

Ключевые слова: книга, чтение, духовность, зарубежье, библиотека, информация, электронная книга.

Abstract. This article describes the role of reading today, its importance in the world and in our country, the attention paid to it in foreign countries and in our society. Also, in this article, information about libraries in the formation of reading culture and attitude to books by the World Community and international organizations is given.

Key words: book, reading, spirituality, abroad, library, information, e-book.

Dunyodagi har qanday mustaqil, hech kimga tobe bo'lmagan davlat borki, ma'naviyatni yuksaltirmasdan rivojlanmagan bo'lsa. Zero, ma'naviy jihatdan boy, hurfikr insonlari bor jamiyat hamisha ozod bo'lur. Har bir jamiyatning a'zosi ma'naviy jihatdan keng ko'lamli dunyoqarashga boy bo'lishi uchun kitob mutolaasini ko'paytirishi darkor. Hozirgi kunda ana shunday ishlarning naqadar kerakli ekanligini his qilgan dunyoning har bir rivojlangan davlati dunyo aholisining har bir qatlamini ilmi qilishni maqsad qilgan holda mana shunday sohaga doir islohotlarni o'z davlat dasturiga, farmon hamda qarorlariga kiritishmoqda.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish uchun, avvalo, kutubxona tizimini takomillashtirish kerak. Xususan, respublikamizning rivojlanish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, 1999-yildan buyon kutubxona sohasining fidoiy mutaxassislarining tashabbusi hamda horijiy tashkilotlar ko'magida "Fan, texnika va biznes sohalarida

kutubxona, Internet resurslaridan foydalanish-Central Asia" Xalqaro anjuman o'tkazila boshlangan. Konferensiyada dunyoning yetakchi kutubxonashunos va bibliograf olimlari, kutubxonalar ish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha mutaxassislari ishtirok etganlar.

Bo'lib o'tgan dastlabki anjumanda Ispaniya, Italiya, Fransiya, AQSH, Germaniya, Latviya, Litva, Shvetsiya, Gruziya, Ozarbayjon, Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston kabi mamlakatlar bilan soha rivoji uchun grantlar ajratilib hamkorlik o'rnatilgan. Bunda Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti kutubxonashunos-bibliograflari, talabalar, mamlakatimizning yirik kutubxonalari xodimlari qatnashdilar. Ayniqsa, bu borada Germaniyaning Gyote instituti faoliyati juda samarali bo'lgan. Bu institut yordamida Samarqand viloyat AKMda, Toshkent shahar sanoat kasb-hunar kollejining ARMda nemis o'quv zallari tashkil etilgan, kompyuter va ilg'or texnika vositalari bilan jihozlandi.¹

Shunday ishlarning davomi o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi ham qaror chiqargan.²

Dasturni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi. Aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash; aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash; milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish; milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish; kitob savdosini tashkil etish tartiblarini soddalashtirish, yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish; kitob savdosini tashkil etish tartiblarini soddalashtirish, yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish; kitob yetkazib beruvchilarni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxona markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to'ldirib borish, elektron kitoblar yaratish,

¹ Kutubxonachilik sohasida quvonchli voqea /Taxririya // Infolib.-2020.-№4(24).-1b.

² <https://lex.uz/docs/-5160827?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>

kitoblarni raqamlashtirish va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish; kitob yetkazib beruvchilarni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxona markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to'ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, kitoblarni raqamlashtirish va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish; aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish; aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish; xorijiy asarlarga onlayn buyurtma berish, ularni respublika hududiga olib kelish va tarqatish tizimini hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish.³

Xorij mamlakatlarida kitobxonlik, jumladan kitoblarga e'tibor juda ham kuchli. Xususan, Vashingtondagi Kongress kutubxonasi asosan AQShning milliy kutubxonasi va mamlakatning eng qadimgi federal madaniy muassasasi hisoblanadi. U bor-yo'g'i uchta binodan iborat bo'lsa-da, javon maydoni va jildlar soni bo'yicha dunyodagi eng katta kutubxona hisoblanadi.⁴ Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ana shunday sharoitlar yaratilgani aholining har bir qatlamini ma'naviyatli qilish uchun, albatta. Hududi jihatidan kichik bo'lgan Yevropa davlatlarida ham kitobxonlikka e'tibor juda ham kuchli. Misol tariqasida Rimdagi katolik cherkovining cherkov yurisdiksiyasi ostidagi Vatikan kutubxonasini aytib o'tish joiz. Ushbu kutubxona dunyodagi eng qadimiy kutubxonalardan biri hisoblanadi. Rasmiy ravishda 1475 yilda tashkil etilgan bo'lsa-da, uning dastlabki shakllarida mavjudligi katolik cherkovining kelib chiqishiga borib taqaladi. Taxminan 600 yil davomida kutubxona tarixiy xaridlar, saxovatli vasiyatnomalar va qimmatbaho sovg'alar orqali o'z kolleksiyasini to'ldirdi. Vatikan kutubxonasida hozirda 1,1 milliondan ortiq kitoblar, 75 000 qo'lyozmalar va 8 500 dan ortiq inkunabula mavjud. To'g'ri, kutubxona Bibliyaning eng qadimgi to'liq qo'lyozmasiga, shuningdek, o'rta asrlardagi boshqa ko'plab muhim asarlarga ega.⁵

Dunyoning Top-10 talik kutubxonalari ro'yxatida oxirgi o'rinda turadigan kutubxonaning ham kitoblar ko'lami jihatidan havas qilarlik darajada. Ushbu kutubxona Toronto universiteti bilan bog'langan. Tomas Fisherning Nodir kitoblar kutubxonasida Kanadadagi boshqa kolleksiyalarga qaraganda ko'proq nodir kitoblar mavjud. To'plamga Nyutonning Principia (1687), Shekspirning birinchi foliosi, Nyurnberg yilnomasi (1493) va miloddan avvalgi 1789 yilga oid Bobil mixxat yozuvlari kabi noyob artefaktlar kiritilgan. Kanada Kommunistik partiyasi a'zosi Robert S. Kenni ham kolleksiyaning katta qismini hadya qilgan. Umuman olganda,

³ <https://lex.uz/docs/-5160827?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>

⁴ <https://elib.tstu.uz/2022/10/06/dunyodagi-eng-yaxshi-kutubxonalar-top-10/>

⁵ <https://elib.tstu.uz/2022/10/06/dunyodagi-eng-yaxshi-kutubxonalar-top-10/>

noyob kitoblar kutubxonasi Kanada va uning tarixiga alohida urgʻu berilgan boʻlsa-da, butun dunyo boʻylab mehnat harakatlariga alohida eʼtibor qaratilgan 25 000 dan ortiq narsalarni oʻz ichiga oladi.⁶

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, jamiyatning har bir qatlamida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitobga muhabbatni oshirish uchun davlat tomonidan eʼtibor ham oʻz oʻrniga ega. Davlatning ushbu holatda asosiy vazifasi kutubxona tizimini takomillashtirishi zarur. Yurtimizda ana shunday ishlarni amalga oshirishda xorij mamlakatlaridan namuna olish kerak, deb hisoblayman. Ayniqsa, dunyoning har tomonlama rivojlangan davlatlari bu sohada yetarlicha oʻrnak boʻla oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori “2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida”
2. Mingesheva M. I., SHAXSGA YOʻNALTIRILGAN TAʼLIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH. 2024.
3. Xodjayev B.X “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Darslik – T: Sano – standart – 2017
4. Oʻtkir Tolipov, Dilnoz Roʻziyeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat-Toshkent “Innovatsiya-Ziyo”-2019
5. <https://elib.tstu.uz/2022/10/06/dunyodagi-eng-yaxshi-kutubxonalar-top-10/>
6. <https://lex.uz/docs/-5160827?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>

⁶ <https://elib.tstu.uz/2022/10/06/dunyodagi-eng-yaxshi-kutubxonalar-top-10/>